

UNIVERSITETLAR REYTINGINI BAHOLASH BO‘YICHA SEMINAR-TRENINGLAR

PRESS RELIZ

Joriy yilning 31-may kuni Prezident ta’lim muassasalari agentligi, Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Times Higher Education (THE) reyting agentligi ishtirokida seminar bo‘lib o‘tdi.

Gibrid tarzda tashkil etilgan mazkur seminarda Prezident ta’lim muassasalari agentligi rahbari Hilola Umarova, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi vakillari, THE boshqaruv direktori Elizabeth Shepard, Markaziy Osiyo/Sharqiy Yevropa bo‘yicha THE mintaqaviy direktori Lachin Italmazova ishtirok etdilar.

Seminar avvalida, Agentlik rahbari Hilola Umarova, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri o‘rnbosari Rahim Xakimov hamda Times Higher Education tashkilotining mintaqaviy direktori Elizabeth Shepard so‘zga chiqdilar. Shundan so‘ng, Times Higher Education tashkiloti vakillari tomonidan quyidagi mavzularda seminarlar tashkil etildi:

1. THE World University Rankings (WUR) global reyting metodologiyasi – 13ta ko‘rsatkich bo‘yicha WUR 2022 natijalariga asoslangan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish;
2. Impact Rankings 2022 O‘zbekiston: kuchli va zaif tomonlari, kelgusi istiqbollar uchun imkoniyatlar;
3. THE Student Pulse: talabalarni universitetga jalg qilishda xalqaro tendensiyalar va talabalar auditoriyasi bilan mustahkam aloqa o‘rnatish;
4. “University Portfolio Review” nima va u nima uchun muhim;
5. Universitetlar reytingiga oid ma’lumotlar va ularni tahlil qilish vositalaridan foydalanish, universitet brendini rivojlantirish, uni onlayn va oflayn vositalar yordamida targ‘ib etishga oid ishlarni tashkil qilish;
6. Keyingi reja va tavsiyalar: universitetning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz joylashuvini o‘rganish;
7. Xalqaro baholash tizimlari (Yevropa va AQSH), ularning afzalliklari va interkollegial qurilma;
8. THE tomonidan ilmiy tadqiqot va maqolalarni baholash;
9. Mahalliy va xorijiy talabalarni THE mezonlari bo‘yicha taqsimlash.

Seminar yakunida, tomonlar o‘zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan barcha savollarga javob olish imkoniga ega bo‘ldilar.

Ma’lumot o‘rnida, mazkur seminarlar Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Yangi O‘zbekiston universitetida bo‘lib o‘tdi. Seminarlar doirasida Oliy ta’lim

muassasalarining reytinglar bilan ishlashga mas'ul prorektor va xodimlari uchun ZOOM platformasida video-konferensiya tashkil etildi.